

HCS D

**Human capital and social
development.**

2025 – volume 15, issue 3

Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali.

2025 – 15-jild, 3-son



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA**INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI****SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT****UNIVERSITETI****Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali****Journal Human capital and social development****Журнал Человеческий капитал и социальноеразвитие****Jurnali****15-jild, 3-son (iyun) 2025.****Jurnal 2021-yilda tashkil topgan.****Davriyligi: har ikki oyda**

Davriy nashirning rasmiy nomi: “Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish”-“Human capital and social development”-“Человеческий капитал и социальное развития” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 19.05.2021 sanada berilgan №1179 guvohnomasi bilan ro‘yhatdan o‘tgan.

Junal: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 30-noyabrdagi 342/3-son qarori bilan tasdiqlangan Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) Ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yhatiga kiritilgan.

Jurnal asoschilari: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla tarqqiyotini boshqarish instituti.

Nashr etuvchi: SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi.

Xalqaro indeksi: ISSN 3030-3672

Tahririyat telefoni: +998 (94) 283 56 78, +998 (90) 502 13 03

Pochta manzili: 140104, Samarqand shahar., Universitet xiyoboni, 4

Web-sayt: www.hcsd.samdu.uz.

E-mail: muhridinrabbimov@gmail.com

«INSON KAPITALI VA IJTIMOYIY RIVOJLANISH»
«HUMAN CAPITAL AND SOCIAL DEVELOPMENT»
«ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ»
JURNALI

Bosh muharrir: t.f.d., prof. Xalmuradov Rustam Ibragimovich

Bosh muharrir o‘rinbosari: i.f.d., prof. Arabov Nurali Uralovich

Kotib: PhD, dots. Nasimov Ikrom Xusanovich

Texnik muharrir: assistent., Rabbimov Muxriddin Musoqul o‘g‘li

TAHRIRIYAT KENGASHI

O‘zFA akademigi, i.f.d., prof. Abdurahmonov Qalandar Xodjayivech

O‘zFA akademigi, i.f.d., prof. G‘ulomov Saidaxror Saidaxmedovich

DSc, professor Daler Mirpochoyev (Iqtisodiyot va savdo instituti, Tojikiston)

PhD, professor Arindam Banik (Xalqaro menejment instituti, Hindiston)

PhD, professor Jiye Li (Sian Jiatong universiteti, Xitoy Xalq Respublikasi)

PhD, professor Bayong Van Li (Yongnam universiteti, Janubiy Koreya)

PhD, professor Vonyong Li (Yongnam universiteti, Janubiy Koreya)

PhD, professor Yan Patterson (Kvinslend universiteti, Avstraliya)

PhD, dots. Djurakulov Shoxrux Davronovich (SamDU)

i.f.n., dots. Yuldashev Shamsiddin Qiyomiddinovich (SamDU)

i.f.n., dots. Nizamov Axtam Numonovich (SamDU)

i.f.n., dots. Bozorov Berdimurod Ulug‘murodovich (SamDU)

i.f.n., dots. Boboqulov Bahromqul Mamatkulovich (SamDU)

i.f.n., dots. Usmonova Dilafruz Karshiyevna (SamDU)

i.f.n., dots. Alibekova Saodat Lapasovna (SamDU)

PhD, dots. Ulug‘murodova Nodira Berdimuradovna (SamDU)

PhD, dots. Sharifov Shuhrat Saidahmadovich (SamDU)

PhD, dots. Bakayev Ziyovuddin Toshbolta o‘g‘li (SamDU)

PhD, dots. Karjavova Xurshida Abdumalikovna (SamDU)

PhD, dots. Mansurova Nargiza Shamsiddinovna (“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti)

PhD, dots. Djalilov Faxriddin Azimovich (SamDU)

PhD, dots. Boltayev Burxon Sadinovich (SamDU)

PhD, dots. Maxmudova Mohinur Ravshanbekovna (SamDU)

SAMARQAND VILOYATIDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Y.P.Urinboyeva 

Samarqand iqtisodiyot va serves instituti, Samarqand, O'zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence

Yulduz Pirnazarovna Urinbayeva

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori., dotsent

Email: yulduzurinboyeva@gmail.com

Tel: +998905052105

Received: 16 May 2025

Revised: 26 May 2025

Accepted: 26 June 2025

Published: 30 June 2025

Funding source for publication:
Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.



Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed <https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/>

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Samarqand viloyatida muzey turizmini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda muzeylarning turizm infratuzilmasidagi o'rni, ularning iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri, shuningdek, muzey turizmining barqaror rivojlanish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Samarqand viloyatidagi muzeylashtirilgan Registon ansambli misolida muzey turizmini rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikning oshishi tahlil qilingan va kelgusidagi moliyaviy o'sishning aniq ko'rsatkichlari ishlab chiqilib, tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: funktsiya, muzeylashtirish, korrelyatsiya, regressiya, statistika, model, koeffitsent, diagramma, traektoriya, test, prognoz.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ МУЗЕЙНОГО ТУРИЗМА В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация: В данной научной статье анализируется экономическая эффективность развития музейного туризма в Самаркандской области. В исследовании рассматривается роль музеев в туристической инфраструктуре, их экономическое и социальное воздействие, а также механизмы устойчивого развития музейного туризма. На примере музеефицированного ансамбля Регистан в Самаркандской области анализируется повышение экономической эффективности развития музейного туризма, разрабатываются конкретные показатели будущего финансового роста и даются рекомендации.

Ключевые слова: функция, музеефикация, корреляция, регрессия, статистика, модель, коэффициент, диаграмма, траектория, тест, прогноз.

ECONOMIC EFFICIENCY OF MUSEUM TOURISM DEVELOPMENT IN THE SAMARKAND REGION

Annotation: This scientific article analyzes the economic efficiency of developing museum tourism in the Samarkand region. The study examines the role of museums in the tourism infrastructure, their economic and social impact, as well as mechanisms for the sustainable development of museum tourism. Using the example of the museumized Registan ensemble in the Samarkand region, the increase in economic efficiency in developing museum tourism is analyzed, specific indicators of future financial growth are developed, and recommendations are given.

Keywords: function, museumification, correlation, regression, statistics, model, coefficient, diagram, trajectory, test, forecast.

Kirish.

Samarqand viloyatida turizm sohasini rivojlanishining asosiy resurslari sifatida viloyatda joylashgan va muzeylashtirilgan tarixiy yodgorliklardan foydalanish yanada ko'proq turistlarni jalb qilish hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, Samarqand viloyatida turizm sohasini rivojlanishiga asosiy ta'sir etuvchi omil bo'lib muzeylashtirilgan tarixiy yodgorliklarni jozibadorligi bo'lsa, tarixiy yodgorliklarning jozibadorligini ta'minlash ushbu tarixiy obida tamonidan olinadigan moliyaviy natijalar hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bo'lib hisoblanadi.

Har qanday natijaga funksional omillar hamda korrelyatsion omillar singari ikki guruh omillar ta'sir qiladi. Funksional omillar bu omilning bir birlikga o'zgarishi natijasida natijani qancha miqdorda o'zgarganligini hisoblash mumkin bo'lgan omillar hisoblansa, korrelyatsion bog'liqlikdagi omillarni bir birlikga o'zgarishi natijasida natija qancha miqdorda o'zgarishini aytish mumkin emas.

Samarqand viloyatida 20 dan ortiq yirik muzey faoliyat yuritadi, ulardan 5 tasi xalqaro miqyosda tanilgan. 2024-yilda muzeylarga tashrif buyurgan sayyohlar soni 1,2 million kishini tashkil etgan, bu 2020-yilga nisbatan 40% o'sishni ko'rsatadi. Muzey turizmi orqali hudud byudjetiga tushgan daromadlar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Ammo, ko'plab muzeylarda marketing, raqamlashtirish, va interaktiv xizmatlar yetarli emas.

Xalqaro iqtisodiyotda bugungi kunda korrelyatsion bog'liqlikdagi omillarni kam statistik xatolik bilan bog'liqligini baholash hamda ushbu omillar asosida prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Buni

aniqlashda ma'lumotlarni korrelyatsion-regression tahlildan o'tkazish lozim bo'ladi. Korrelyatsion-regression tahlil statistik tahlil usullaridan biri bo'lib, ikki yoki undan ortiq o'zgaruvchilar orasidagi bog'liqlik darajasini aniqlash va bu bog'liqlik asosida prognoz qilish imkoniyatini beradi.

Korrelyatsion-regression tahlil quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

birinchidan, muammo aniqlanadi va yechim bo'yicha maqsad qo'yiladi. Bu bosqichda tahlil qilinadigan o'zgaruvchilar (mustaqil va bog'liq o'zgaruvchilar) aniqlanadi;

ikkinchidan, tahlil qilinadigan o'zgaruvchilar bo'yicha ma'lumotlar to'planadi. Bu bosqichda tanlangan o'zgaruvchilarga oid aniq va ishonchli statistik ma'lumotlar yig'iladi. Ma'lumotlar yetarli miqdorda, bir davrga tegishli va aniq bo'lishi kerak;

uchinchidan, ma'lumotlar dastlabki tahlildan o'tkaziladi. Bu bosqichda jadval tuzish, o'zgaruvchilar qiymatlarini ko'rsatish, diagramma chizish, bu orqali bog'liqlikni vizual baholash amalga oshiriladi. Normal taqsimotga moslik, ekstremal qiymatlar borligi tekshiriladi;

to'rtinchidan, korrelyatsiya tahlili o'tkaziladi. Bu bosqichda korrelyatsiya koeffitsenti hamda korrelyatsiya darajasi baholanadi;

beshinchidan, regression tahlil amalga oshiriladi. Bu bosqichda bog'liq o'zgaruvchi, mustaqil o'zgaruvchi, erkin had hamda regressiya koeffitsentlari asosida regressiya funksiyasi ishlab chiqiladi;

oltinchidan, regressiya modelining statistik ahamiyatliligi tekshiriladi;

yettinchidan, regressiya modeli asosida prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqiladi;

sakkizinchidan, olingan natijalar talqin qilinadi hamda tegishli xulosalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot davomida yuqoridagi keltirilgan fikrlar asosida Samarqand viloyatidagi asosiy tarixiy yodgorliklardan biri, muzeylashtirilgan “Registon” ansambli tanlab olindi hamda birinchi bosqich sifatida “Registon” majmuasini rivojlantirish hamda unga ta’sir etuvchi korrelyatsion bog‘liqlikdagi omillarni ta’sirini aniqlash maqsad qilib olindi. Tadqiqotning ikkinchi bosqichi sifatida natijaviy ko‘rsatkich qilib “Registon” ansamblining asosiy natijaviy ko‘rsatkichi ansamblning tushumi sifatida

olinib unga ta’sir etuvchi korrelyatsion bog‘liqlikdagi omillar sifatida quyidagilar tanlab olindi.

Y – ansamblning tushumi;

X_1 – majmuadagi xodimlar soni;

X_2 – jami turistlar soni;

X_3 – mahalliy turistlar soni;

X_4 – xorijiy turistlar soni;

X_5 – dam olish maskanlari soni;

X_6

– turizm sohasiga kiritilgan innovatsiyalar soni

Tanlab olingan natijaviy ko‘rsatkich hamda natijaga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar yig‘ildi (1-jadval).

1-jadval


“Registon” ansamblining 2015-2024-yillardagi tushumi hamda unga ta’sir etuvchi omillar dinamikasi

	Registon ansambli tushumi (so‘mda)	Registon xodimlari soni (birlikda)	Jami turistlar soni (birlikda)	Mahalliy turistlar soni (birlikda)	Xorijiy turistlar soni (birlikda)	Dam olish maskanlari soni, dona	Turizm sohasiga olib kiritilgan innovatsiyalar soni, dona
2015	865448142	45	200600	168600	32000	30	25
2016	1330611089	41	237000	202500	34500	42	30
2017	2549211595	40	706265	647865	58400	120	42
2018	5032351636	40	1209969	1115737	94232	163	54
2019	8772495000	42,5	1159767	1002774	156993	201	62
2020	1668735000	32	188488	178720	9768	256	65
2021	4616578794	43,5	680264	647835	32429	256	25
2022	9522482593	45,5	1027951	914461	113490	261	15
2023	15049262894	47,5	1025510	822117	203393	282	26
2024	25563463344	47,5	1160700	865490	295210	305	30

Tadqiqotning keyingi bosqichi sifatida natija hamda omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni vizual baholash maqsadida natija hamda omillarni harakat

traektoriyalari GRETl dasturi yordamida bir diagrammada aks ettirildi (1-diagramma).

Olingan natijalardan ko'rish korrelyatsiyani aniqlash bizga bir-birini mumkinki, harakat traektoriyalari takrorlaydigan omillarni aniqlash bo'yicha beshinchi omildan tashqari imkonini beradi hamda natijaviy qolgan barcha omillar ma'lum darajada ko'rsatkichga ta'sir etish darajasi kuchsiz yaqin hisoblanadi. Natijaviy bo'lgan omillarni aniqlash uchun ko'rsatkichga omillar ta'sirini aniqlashda foydalaniladi. asosan juft korrelyatsiya qo'llaniladi. Juft



1-diagramma. Natija va omillar o'rtasidagi bog'liklik

Ushbu usul bilan juft korrelyatsiyani aniqlash orqali regressiya tenglamasiga kiritiladigan omillarni aniqlab olamiz va ularni regressiya tenglamasiga kiritamiz.

Buning uchun quyidagi juft koeffitsient korrelyatsiya formulasidan foydalanildi:

$$r = \frac{\overline{YX} - \bar{Y} * \bar{X}}{\sigma_Y * \sigma_X}$$

Bunda $\bar{Y}$, $\bar{X}$, –natijaviy va omillarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning o'rtacha miqdorlari;

$\overline{YX}$ – natija bilan omillarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning ko'raytmasi;

σ_Y , σ_X -natijaviy va omillarning o'rtacha kvadratik chetlanishi.

Koeffitsient korrelyatsiyaning miqdori (-1)dan (+1)gacha oraliqdagi bog'liqlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Koeffitsientning miqdori quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Koeffitsient korrelyatsiyasi (-1) va (+1)ga qancha yaqin bo'lsa natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik shuncha zich bo'ladi.

2. Agar $r = 0$ bo'lsa bular o'rtasidagi bog'liqlik yo'q, degan xulosa uchun asos bo'ladi.

3. Agar $0 < r < 1$ bo'lsa ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik bevosita to'g'ri bo'lib, bir xil yo'nalishga ega bo'ladi.

4. $-1 < r < 0$ bo'lsa ular o'rtasidagi bog'liqlik teskari ekanligini ko'ramiz.

5. $r = 1$ (-1) bo'lsa ular o'rtasidagi bog'liqlik funksional, degan xulosaga kelish uchun asos bo'ladi.

Ushbu formuladan foydalangan holda GRETl dasturi yordamida o'zaro takrorlanuvchi omillarni aniqlash uchun quyidagicha juft korrelyatsiya koeffitsientlari matrisasi tuzildi. Hisoblashlar natijalari quyidagi ko'rsatkichlarni berdi (2-jadval).

2-jadval

“Registon” ansambliga tushum va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro bir-biri bilan juft korrelyatsion bog'liqligi

Y	X1	X2	X3	X4	X5	X6
1,0000	0,6315	0,6789	0,5517	0,9678	0,6828	-0,2426
	1,0000	0,4851	0,4055	0,6477	0,1667	-0,7447
		1,0000	0,9856	0,7537	0,5583	0,0165
			1,0000	0,6318	0,5117	0,0579
				1,0000	0,5710	-0,1492
					1,0000	0,0060
						1,0000

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkiki, natijaga tanlab olingan omillardan X1 omil 63 foiz, X2 omil 48 foiz, X3 omil 93 foiz, X4 omil 63 foiz, X5 omil 57 foiz bog'liq hamda X6 omil esa natija bilan bog'liqlikka ega emas. Bog'lanishga ega bo'lmagan X6 omilni modeldan chiqarib yuborgan holda qolgan beshta omil asosida kichik kvadratlar usulidan foydalanib quyidagi natijalar olindi (3-jadval).

3-jadval

Kichik kvadratlar usuli orqali natija hamda omillar o'rtasidagi bog'liqlik darajalarining natijaviy ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	Koeffisient	Statistik xatolik	Statistika	r-ko'rsatkich	Bog'liqlik darajasi
1	const	-8,56613e+09	6,05091e+09	-1,416	0,2160	
2	X1	1,64901e+08	1,46222e+08	1,128	0,3106	
3	X2	72978,7	9334,72	7,818	0,0005	***
4	X3	-76555,9	10079,0	-7,596	0,0006	***
5	X4	2,03138e+07	6,48649e+06	3,132	0,0259	**
6	X5	-8,56613e+09	6,05091e+09	-1,416	0,2160	

*- natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik bor;

** - natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik o'rtacha;

***- natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik yuqori.

Tadqiqot natijalaridan ko'rish mumkinki, natijaga ta'sir qiluvchi X1 hamda X5 omillar birgalikdagi testdan muvaffaqiyasiz o'tdi. X2, X3 hamda X4 omillar esa birgalikdagi testdan muvaffaqiyatli o'tdi. Ammo X2 omil bilan X3 va X4 omillar bog'liqlik darajasini yuqoriligi inobatga olinib multikolleniarlikni oldini olish maqsadida X2 omil ham modeldan chiqarib yuborildi hamda qolgan ikki omil X3 va X4 omil bo'yicha kichik kvadratlar usulidan foydalangan holda qayta testdan o'tkazildi (4-jadval).

4-jadval

**Kichik kvadratlar usuli orqali natija hamda omillar
o'rtasidagi bog'liqlik darajalarining
natijaviy ko'rsatkichlari**

№	Ko'rsatkichlar	Koeffitsent	Statistik xatolik	t-statistika	r-ko'rsatkich	Bog'liqlik darajasi
1	const	-9,15305e+07	1,46132e+09	-0,06264	0,9518	
2	X3	-2167,99	2552,24	-0,8494	0,4237	
3	X4	87461,1	9920,65	8,816	<0,0001	***

*- natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik bor;

** - natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik o'rtacha;

***- natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik yuqori.

Tadqiqot natijalaridan ko'rish mumkinki X3 hamda X4 omil asosida olib borilgan testdan X3 omilning r qiymati 0,1dan 161ata bo'lganligi sababli testdan muvaffaqiyasiz o'tdi. Tadqiqot davom ettirildi hamda qolgan omillar juftliklari asosida bir necha marta testlar o'tkazildi hamda X4 va X5 omillar juftligi asosida kichik kvadratlar usuli orqali amalga oshirilgan testdan ushbu ikki omil muvaffaqiyatli o'tganligi aniqlandi (5-jadval).

5-jadval

**Kichik kvadratlar usuli orqali natija hamda omillar o'rtasidagi bog'liqlik
darajalarining natijaviy ko'rsatkichlari**

№	Ko'rsatkichlar	Koeffitsent	Statistik xatolik	Tstatistika	r-ko'rsatkich	Bog'liqlik darajasi
1	const	-2901020000	1,23603e+09	-2,347	0,0513	*
2	X4	72775,4	7640,96	9,524	<0,0001	***
3	X5	15131500	7,05166e+06	2,146	0,0690	*


*- natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik bor;

** - natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik o'rtacha;

***- natija hamda omil o'rtasida bog'liqlik yuqori.

Ushbu ikki omilning birgalikdagi kichik kvadratlar usuli testining umumiy natijalariga ko'ra asosiy ko'rsatkichlardan biri determinatsiya koeffitsenti 0,950834ga tengligi aniqlandi. Determinatsiya koeffitsenti – regressiya modelining aniqlik darajasini bildiradi ya'ni, mustaqil o'zgaruvchilar bog'liq o'zgaruvchidagi umumiy o'zgarishning necha foizini tushuntirib berayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga,

ushbu ikki omil hamda natija bo'yicha kichik kvadratlar usuli bo'yicha amalga oshirilgan statistik testning umumiy natijalariga ko'ra umumiy p qiymat 0,000011 ga tengligi aniqlandi. Tadqiqotning keyingi bosqichi sifatida olingan natijalarni normal taqsimot testidan o'tkazildi hamda quyidagi natijalar olindi (2-diagramma).



2-diagramma. Normal taqsimot testi natijalari

Tadqiqot natijalaridan ko'rish mumkinki Xi-kvadrat ko'rsatkich 0,586 ni tashkil qilib $(-3:3)$ oraligiga tushushi hamda tanlab olingan omillarning barchasi birgalikda normal taqsimot testlaridan muvaffaqiyatli o'tganligi aniqlandi. Olib borilgan o'rganishlar hamda tadqiqotlar natijasida "Registon" ansamblining tushumi hamda unga ta'sir etuvchi X_4 va X_5 omillar o'rtasida quyidagi regressiya tenglamasi ishlab chiqildi.

$$y = 72775,4 * x_4 + 15131500 * x_5 - 2901020000$$

O'rganilgan o'n yil hamda ushbu regressiya tenglamasi asosida "Registon" ansambli tushumining 2027-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga ishlab chiqilgan modelga qo'yilishi lozim bo'lgan, testlardan muvaffaqiyatli o'tgan X_4 – *xorijiyturistlar soni* hamda X_5 – *damolish maskanlar soni*ning o'rtacha o'zgarish darajasi X_4 omil 28 foiz X_5 omil 29 foizga teng ekanligi aniqlandi. Agar natijaga ta'sir qiluvchi omillar keying uch yilda ham shu o'rtacha darajani saqlab qolsa, ularning dinamikasi quyidagicha o'zgarishi aniqlandi (6-jadval).

6-jadval

Modelga kiritilgan omillarning o'rtacha o'zgarish darajasi saqlab qolingandagi natijalari

Yillar	X_4	X_5
2025	377 869	393
2026	483 672	508
2027	619 100	655


Agar modelga kiritilgan hamda barcha statistik testlardan muvaffaqiyatli o'tgan ushbu ikki omil shu tartibda o'sib borsa "Registon" ansamblining tushumi 2025-2027-yillarda quyidagicha bo'ladi (7-jadval).

7-jadval

"Registon" ansambli tushum hajmining 2027-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2025	2026	2027
“Registon” ansambli tushum hajmi (so'mda)	30 552 021 742,52	39 978 408 317,18	52 061 448 249,89

Agarda X_4 – xorijiy turistlar soni hamda X_5 – dam olish maskanlari sonining o'rtacha o'zgarish darajasi X_4 omil 28 foiz X_5 omil 29 foizga o'sib borsa “Registon” ansamblining 2027-yilga borib tushumi 52 061 448 249,89 so'mga yetishi prognoz qilindi (2.4.4-diagramma).



3-diagramma. “Registon” ansambli tushumining 2027-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari

Tadqiqot natijasida aniqlangan prognoz ko'rsatkichlari quyidagi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi:

Birinchidan, ansamblining keyingi strategik rejalarini ishlab chiqishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ansamblining moliyaviy natijalarini bir qismini prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. Toshkent sh.,2018 yil 26 avgust).

2.Brejneva M. L., Kultura i vzaimodeystvie narodov v muzeynyx, nauchnyx i obrazovatelnyx processax – vajneyshie faktory stabilnogo razvitiya stran Evrazii: sb. nauch. tr.: v 2 ch. Omsk: Izdat. dom «Nauka»,2021. – Ch. 2. –186 s.

3.Zdasjuk N.M., Uchebnaya programma uchrejdeniya vysshego obrazovaniya uchubnoy dissipline mezeynogo turizma, 2015, 8 s.

4.Ziba Ya., Muzeyny turizm: opredeleniya, ponyatiya i problemy ego razvitiya, 118 s. - Ekonomicheskie nauki -International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 10-4 (85), 2023.

5. Muxamedova M.S., Muzeyshunoslik. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2013.-174.

6. Myagtinoy N. V. ; Muzevedenie:Ucheb. posobie Vladim. gos.un-t. – Vladimir : Izd-vo VIGU, 2010. – 114 s.

CONTENTS

1	SAMARQAND VILOYATIDA INVESTITSION - INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISH HOLATI VA INVESTITSİYALARNING TARKIBIY XUSUSIYATLARI	
	Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Axrorov Abbos Aslamjon o'g'li	4-13
2	“YASHIRIN IQTISODIYOT”GA METODOLOGIK YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISH	
	Abduvohidov Najmiddin Rahmatullaevich	14-19
3	OILA TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH DASTURI DOIRASIDA BANKLAR TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN ISHLARNING AHAMIYATLI JIHLARI	
	Z.D.Niyozov , A.A.Axrorov	20-24
4	HUDUDIIY INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	
	Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Ergasheva Aziza Xasan qizi	25-34
5	DESTINATION MANAGEMENT AND BRANDING: CREATING COMPETITIVE ADVANTAGE IN GLOBAL TOURISM	
	Nasimov Dilmurod Abdullayeich, Sirojiddinova Shahrizoda	35-42
6	TA'LIM MUASSASALARIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAMOIYILLARI	
	Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	43-47
7	SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH VA BASHORATLASH ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	
	Bekmurodov Ulug'bek Bahrom o'g'li, Shomirzayev Farruh Akram o'g'li	48-55
8	SAMARQAND VILOYATIDA INVESTITSION-QURILISH JARAYONLARI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI	
	Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	56-61
9	TURISTIK XIZMATLAR VUJUDGA KELISHINING XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	
	Umirzoqova Muxabbat Ismatjon qizi	62-67
10	TURAR-JOY KO'CHMAS MULK OBYEKTLARINI BAHOLASH XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARINI TAHLILI	
	A.S.Suyunov, B.M.Abduraimov, B.A.Suyunov	68-73
11	BANK XIZMATLARIDA AN'ANAVIY XIZMATDAN RAQAMLI XIZMATGA O'TISHNING AHAMIYATLI JIHLARI	
	Niyozov Zuxur Davronovich, Bektemirov Bunyodjon Mamasaliyevich	74-78
12	MINTAQAVIY TRANSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING QO'LLANILISHI VA ULARNING USTUVOR YO'NALISHLARI	
	Rahmonov Rasul Ne'matovich	79-86
13	POTENTIAL AND POSSIBILITIES OF UTILISATION OF CULTURAL HERITAGE FOR TOURISM DEVELOPMENT IN SAMARKAND	
	Mukhsin Khidirov, Umida Shodieva	87-91
14	O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI RAG'BATLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNING O'RNI	
	Abdurahmonov Azizbek Akram o'g'li	92-99
15	IoT (INTERNET OF THINGS) XAVFSIZLIK MUAMMOLARINI BARTARAF ETISH USULLARI	
	Bekmurodov Ulug'bek Bahrom o'g'li , Ruziyeva Zulfiya Qurvonovna	100-106

16	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УСЛУГ ПО ОЦЕНКЕ ОБЪЕКТОВ ЖИЛОЙ НЕДВИЖИМОСТИ (НА ПРИМЕРЕ РЫНКА ЖИЛЬЯ Г. САМАРКАНДА)	
	A.C.Суюнов, Б.А.Суюнов	107-114
17	TURIZM SOHASINI KLASSTERLASHTIRISHNING INNOVATSION OMILLARI VA XUSUSIYATLARI	
	Botirov Og'abek Jasurbek o'g'li	115-118
18	INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH ORQALI TABIIY TURISTIK RESURLARNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	
	Rabbimov Muxriddin Musoqul o'g'li, Samiyeva Muxlisa Olim qizi	119-123
19	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RESURS TA'MINOTI TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA IQTISODIY MOHIYATI	
	Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi	124-130
20	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA DAVLAT BOSHQARUVINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	
	Sanakulova Iroda Abrorovna	131-135
21	QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	
	Nurimbetov Timur Uzakbergenovich	136-140
22	HUDUDIIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TURISTIK-INNOVATSION KLASSTERLARNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI	
	Erbo'tayev Azimjon Qahramon o'g'li	141-148
23	INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA INSON KAPITALINING KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	
	Eshbo'riyev Umarbek Rashidovich	149-155
24	SAMARQAND VILOYATIDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	
	Yulduz Pirnazarovna Urunbayeva	156-163
25	ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISHI VA UNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	
	Tashmatov Sharaf Urokboyevich	164-170
26	BALANCING FINANCIAL AND NON-FINANCIAL REWARDS: EXPLORING EMPLOYEE MOTIVATION AND PERFORMANCE IN EMERGING ECONOMIES	
	Kengboyeva Mavluda Yuldashbayevna	171-178
27	OLIY TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	
	Boynazarova Iroda Mahmud qizi	179-185
28	ДВУХЭТАПНЫЙ МЕТОД ГРУППИРОВКИ БУЛЕВЫХ ПРИЗНАКОВ И ПОСТРОЕНИЕ ИНФОРМАТИВНЫХ ПРИЗНАКОВ В ВЫДЕЛЕННЫХ ГРУППАХ	
	Порсаев Ганиджон Мухамедович	186-193
29	RESEARCH ON MARKETING INNOVATION OF CHINESE MUSEUM CULTURAL AND CREATIVE PRODUCTS FROM THE PERSPECTIVE OF EXPERIENTIAL MARKETING	
	Nasimov Ikrom Khusanovich, Guang Yang	194-200
30	TURIZM SOHASINING INNOVATSION FAOLLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH HOLATI TAHLILI	
	Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	201-206